

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT  
STRATEGIYASI VA MA’RIFIY TARG‘IBOTNING  
DOLZARB MASALALARI**

*Vaxabov Mansur To‘ychiyevich  
SamDVMChBU katta o‘qituvchisi*

**KEY ISSUES OF THE NEW UZBEKISTAN  
DEVELOPMENT STRATEGY AND  
EDUCATIONAL PROPAGATION**

*Vahabov Mansur Toychiyevich  
Senior teacher of SamDVMChBU*

**КЛЮЧЕВЫЕ ВОПРОСЫ НОВОЙ СТРАТЕГИИ  
РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА И  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОДАЖИ**

*Вахабов Мансур Тойчиевич  
Старший преподаватель СамДВМЧБУ*



<https://orcid.org/0000-0002-0010-9220>  
[vaxobovaferuza@gmail.com](mailto:vaxobovaferuza@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'naviyatshunoslik fanimizda shu paytgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan «ma'rifiy targ'ibot» tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi, mohiyati va mazmuni, targ'ibot va tashviqotning boshqa turlari bilan bog'liqligi, jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, ma'rifatli jamiyat, konsepsiya, yangi O'zbekiston, moddiy va ma'naviy, obyektiv va subyektiv, taraqqiyot strategiyasi, targ'ibot, ma'rifiy targ'ibot, mohiyat, tabiat, jamiyat, inson.

**Annotation:** In this article, the concept of "educational propaganda", which has not been included in scientific circulation in our science of spiritual studies, its definition and description, its essence and meaning, its connection with other types of propaganda and agitation, and its importance in the life of society are explained.

**Key words:** enlightenment, enlightened society, concept, new Uzbekistan, material and spiritual, objective and subjective, development strategy, propaganda, enlightened propaganda, essence, nature, society, man.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается понятие «просветительская пропаганда», не вошедшее в научный оборот в нашей духовной науке, ее определение и описание, ее сущность и значение, ее связь с другими видами пропаганды и агитации, ее значение в жизни общества.

**Ключевые слова:** просвещение, просвещенное общество, концепция, новый Узбекистан, материальное и духовное, объективное и субъективное, стратегия развития, пропаганда, просвещенная пропаганда, сущность, природа, общество, человек.

**Kirish.** «Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida 71-maqсад tarkibiga kiritilgan, ammo «ma’rifatli jamiyat» o‘zi nima, u qanday amalga oshiriladi, uning obyektiv va subyektiv omillari, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlari nimalardan iborat, degan savollarga javob berilmagan. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» asarida ushbu

masalaga kengroq o‘rin ajratgan, «Ma’naviy taraqqiyot» deb nomlangan beshinchi bo‘limning «Ma’rifatli jamiyat sari» 5-bandida ushbu tushunchaga chizgilar berilgan. Ayni paytda «ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi»ni mukammal va puxta tarzda yaratish kerakligi ta’kidlangan. Ma’rifiy targ‘ibot esa, garchi kategoriya sifatida falsafiy lug‘at va qomuslarga hozircha kiritilmagan bo‘lsa-da, lekin «Ma’rifatli jamiyat» konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi shubhasiz. Quyida

ma'rifat, ma'rifatli jamiyat va ma'rifiy targ'ibot borasidagi fikrlarimizni bayon etamiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqola yozilish jarayonida ma'naviyatshunoslik fanida shu paytgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan «ma'rifiy targ'ibot» tushunchasi bilan bog'liq bir qator adabiyotlar, Kant. "Otvét na vopros: Chto takoye prosvetsheniye" (1783). "Ming bir hadis" bilan ishlangan

**Muhokama.** O'zbek tilidagi ma'rifat so'zi arabcha "a'rafa" fe'lidan olingan bo'lib, bu fe'l bilish, tanib olish kabi ma'nolarni anglatadi. Bu o'zakdan orif, ma'ruf, maorif, ma'rifat so'zlari yasaladi.

Ma'rifat – bilim va ilm, uni egallash ma'nosida u yoki bu insoning tabiat, jamiyat, inson mohiyati haqidagi bilim va ilmlarni egallaganlik darajasi va unga aloqador bo'lgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir. Ma'rifatli degani esa – muayyan sohada ma'lumoti bor, ko'p narsani biladigan, mushohada qiladigan, bilimli, o'qimishli demakdir. Fanlar keng va chuqur rivojlangan va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasi, yo'nalishinigina egallashga erisha oladi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, matematika va boshqalarning ham ma'lum, o'zi qiziqqan yo'nalishlarini egallaydilar.

**Natijalar.** «Ma'rifat» atamasi keng ma'noda qo'llanib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlarni, muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning ma'lum davrda erishgan natijalarini anglatadi.

Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish ma'rifatga ta'sir etadi va unda bu munosabatlar qanday natijalarga olib kelishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu bois ma'rifat nafaqat o'tmish yoki bugungi kun, balki kelajakka nisbatan munosabatning ifodasi hamdir. Ma'rifat inson faoliyatining mahsuli, sifat ko'rsatkichi. Insoniyatning o'zi ham pirovard natijada ma'rifat mahsulidir. Ma'rifiy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi. Ma'rifatning ijodkori, eng avvalo, xalq. Ma'rifatda ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni o'zlashtirmay, bilmay turib, ma'rifatli bo'lish mumkin emas.

«Ma'rifat» so'zi yakka va ko'plik ma'nolarda ishlatiladi. U arab tilidan olingan bo'lib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi ma'nolarni bildiradi.

Ma'naviyat, ma'naviylik va ma'rifat, ma'rifatlikning o'zaro munosabati va nisbati masalasini to'g'ri aniqlab olish ma'naviy barkamol, insonlarni tarbiyalashda, jamiyat ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Ma'naviyat har doim ma'rifat bilan, ya'ni bilim bilan uyg'un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg'unligiga erisha olsakkin yoshlarimizning ma'naviy barkamol, iymon-e'tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo'lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G'azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo'lgach, amalga hojat yo'q qabilida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o'zi bilan kifoyalani, shariatni inkor etuvchilar e'tiqodi bo'lib, ular uchun ilm hosil bo'lsa-yu, amal bo'lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo'qligini bilishmaydi. Holbuki o'qib o'rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir».

Insonning bilim va ilmni egallab kundalik amaliy faoliyatda ularga amal qilishi insof, iymon, vijdon, ixlos kabi ko'plab ma'naviy fazilatlarining yanada mustahkamlanishga olib keladi.

Ma'naviyati va ma'rifati yuksak kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, o'zgalarga himmat – muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zlari uchun baxt deb biladi. Yuksak ma'naviyat va marifat sohibi bo'lgan kishilar boshiga mushkul ish, qayg'u tushgan kishining mushkulini oson qiladi, qayg'usiga sherik bo'ladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Bunday fazilat egasi bo'lgan kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ular o'z millati, el-ulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi, Vatan mustaqilligiga xavf tug'ilsa, uning himoyasi yo'lida mol-dunyosini, jonini ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalarni ko'rsatadi.

Yuqorida keltirgan fikrlarimizdan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, ma'rifatli jamiyat qurish borasidagi ajdodlarimizning asriy intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarur.

Bu o'ta dolzarb va murakkab vazifani ado etishning muhim omili – ma'rifiy targ'ibotdir. Biz ushbu

tushunchaga quyidagicha ta'rif beramiz: «**ma'rifiy targ'ibot**» - **ma'naviy targ'ibot-tashviqotning muhim tarkibiy bo'lagi, ajralmas qismi bo'lib, aholi, ayniqsa yoshlar orasida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar bilimlarni keng yoyish, ma'rifiy jamiyat a'zolarining bilim saviyasini oshirish, ilmiy-falsafiy dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltirilgan ta'sir vositasidir.**

Bir paytlar amalda bo'lgan va o'zini tajribada batamom oqlagan "Bilim" jamiyati olib borgan keng ko'lamli ishlar ma'rifiy targ'ibotga tarixiy misol bo'la oladi.

Avvalo ma'rifatli jamiyat qurish uchun odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash zarur. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim.

Albatta, hayot bor ekan, uning o'tkir talablari, muammolari bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun avvalo, ilm va ma'rifat zarur. Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak.

Ma'rifiy targ'ibotning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

**birinchidan**, eng katta, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlikka raxna solish, turli xalqlar o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar mavjud. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo, doimiy hushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**ikkinchidan**, islohotlarning pirovard – maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash, eng muhim vazifamiz – taraqqiyot strategiyasini ro'yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish ekan, buning uchun ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, ma'rifatli jamiyatni barpo etish lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning eng kuchli vositasi – ma'rifiy targ'ibotdir;

**uchinchidan**, milliy o'zligimizni saqlab qolish, asrlar sinovidan o'tgan an'alarimizni, iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgan

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsadini amalga oshirish uchun ham zamonaviy texnologiyalarga tayanadigan, innovasion yondashuvlardan foydalanadigan ma'rifiy targ'ibot zarur;

**to'rtinchidan**, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatparvar davlat", degan shior yurtimiz rahbariyati tomonidan maydonga tashlangan, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan ekan, uning muvaffaqiyatli ado etilishi ham ko'p jihatdan samarali ma'rifiy targ'ibotga bog'liq bo'lib qolaverdi. Zotan, ma'rifatli jamiyatni aynan shu turdagi keng ko'lamli targ'ibot va ta'lim-tarbiyasiz amalga oshirish mumkin emas.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ma'rifiy targ'ibot sohasida qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'lami juda katta va qirralari serobdir. Shuning uchun juda qisqa muddatlarda "Ma'rifiy targ'ibot" konsepsiyasini ishlab chiqish, ushbu hujjat rasmiy organlarda tasdiqdan o'tgach, uning asosida ish rejasi va amaliy dastur tayyorlash zarur. Mana shunday nazariy-g'oyaviy asos bilan qurollangan ma'rifiy targ'ibotchilar jamoasini shakllantirish, ushbu xayrli ishga barcha fan vakillari, jamoat arboblari, san'at va madaniyat xodimlari, ta'lim-tarbiya fidoyilarini jalb etish – muvaffaqiyatga erishishning asosiy kalitidir.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Far-moni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. // 2022-yil 28-yanvar.// <https://lex.uz/docs/5841063>
- 2.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent, "O'zbekiston", 2022-yil.
- 3.Shavkat Mirziyoyev. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. 2017-yil 19-sentyabr.
- 4.Kant. Ответь на вопрос: Что такое просвещение. (1783). <https://iphras.ru/uplfile/philec/gou/kant.pdf>
- 5.Ming bir hadis. Toshkent, "Kamalak". 1991-yil.
- 6.Ilmning ahamiyati. Muhammad Ali Muhammad Yusuf tarjimai // <https://islom.uz/maqola/4623>
- 7.Kun hikmati 40: Imom G'azzoliy ilm haqida.//<https://ziyouz.uz/hikmatlar/kun-hikmati/kun-hikmati-40-imom-gazzoliy-ilm-haqida/>